

Baynazarova Nilufar Xikmatullayevna
CHDPU, San'atshunoslik fakulteti tyutori
baynazarovnilufar5@gmail.com +998943692180

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO'NALТИРИШ

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlikka yo'naltirishning ahamiyati, uning ta'lim jarayonidagi roli va tarbiyaviy soha bilan bog'liqligi yoritiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berishni, balki mustaqil fikrlovchi, innovatsion yechimlar topa oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlashni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari, muammoli ta'lim, loyihibaviy va interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy ijodiy faoliyatini va o'quvchilarni ijodiy ishlarga jalb etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion pedagogik texnologiya, ijodiy qobiliyat, estetik muhit,dizayn, interfaol.

Аннотация: В данной статье освещается важность направленности будущих учителей на творчество, его роль в образовательном процессе и связь с воспитательной сферой. Современная система образования требует не только передачи знаний, но и подготовки творческих педагогов, способных самостоятельно мыслить и находить инновационные решения. С этой точки зрения в статье анализируются методы развития творческого мышления, проблемное обучение, проектные и интерактивные методы, а также их эффективность. Кроме того, даются практические рекомендации по развитию личной творческой деятельности учителя и вовлечению учащихся в творческую работу.

Ключевые слова: инновационная педагогическая технология, творческие способности, эстетическая среда, дизайн, интерактивный.

Annotation: This article highlights the importance of fostering creativity in future teachers, its role in the educational process, and its connection with the field of upbringing. The modern education system requires not only knowledge transfer but also the preparation of creative educators capable of independent thinking and finding innovative solutions. From this perspective, the article analyzes methods for developing creative thinking, problem-based learning, project-based and interactive teaching methods, as well as their effectiveness. Additionally, practical recommendations are provided for developing teachers' personal creative activities and engaging students in creative work.

Keywords: innovative pedagogical technology, creative abilities, aesthetic environment, design, interactive.

O'qituvchi – jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinni tutadigan shaxs bo'lib, nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning tarbiyachisi va yo'l ko'rsatuvchisidir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali hamkorlik nafaqat bilim olish jarayonini yaxshilaydi, balki talabaning shaxsiy rivojlanishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.O'qituvchining ta'lim jarayonidagi roli shunchaki dars o'tish bilan cheklanmay, balki inson kamoloti, ijtimoiy rivojlanish va kelajak avlodni shakllantirish bilan ham bog'liq.

Ta'lim-tarbiya – har qanday jamiyatning rivojlanish kaliti, chunki u insonlarning bilim darajasini oshirish, tafakkurini rivojlantirish va innovatsiyalar yaratish imkonini beradi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchining o'rnini beqiyos va o'z o'rniga ega bo'lish uchun o'z ustida ishslashni talab qiladi. Bugungi kun talabasi o'quvchilarga bilim berish orqali ularga jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi.Buning natijasida malakali va bilimli insonlarni tayyorlash orqali iqtisodiyot, fan, texnologiya va madaniyatning rivojlanishiga turtki beradi. Bu rivojlanish

orqali faqat bilim emas, balki axloq, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bunda bo’lajak o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Bo’lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish ularning professional rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim omillardan biridir. Bu jarayon o‘ziga xos metodlar, texnikalar va o‘qitish yondashuvlarini talab qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda asosiy o‘rin egallaydi. Bo’lajak o‘qituvchilar uchun bu texnologiyalarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash nafaqat ta’lim jarayonini takomillashtirish, balki ularning kasbiy mahoratini oshirishga ham xizmat qiladi. Bo’lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish muhim rol o‘ynaydi. Bu talaba uchun o‘quv jarayonida ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi erkin fikrlash, g‘oyalarni ochiq aytish va tanqidiy fikrlash, fikr almashish va o‘z fikrlarini ochiq aytish imkoniyatini targ‘ib qilinish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Shunda talabalar o‘quv mashg‘ulotlari davomida yangi g‘oyalalar yaratish uchun imkoniyatlarga ega bo‘lishadi. Nazariy bilimlarni amaliyotda noan’anaviy, bir-biriga o‘xshamagan kreativ va ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash talabaga ijodkorligini oshirish uchun motivatsiya beradi. Bunda albatta talabalarda xatolardan qo‘rqmaslik va ulardan saboq olish madaniyatini targ‘ib qilish lozim. Shunda talaba ijodiy yondashishga, yangi fikrlarni bayon qilishdan cho‘chimasdan faoliyat yurita olishi mumkin.

“Har bir vazifa – foydali mahsulot”, “Ko‘rdim-eshitdim-bajardim” tamoyillari asosida har bir bo’lajak o‘qituvchi o‘z dars jarayoni, to‘garak faoliyatida amaliyotga yo‘naltirish ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga ko‘mak bo‘ladi. Amaliyotga yo‘naltirilgan ijodiy mashg‘ulotlar aniq maqsad asosida talabalarning nazariy, amaliy bilimlarini hamda ijodiy salohiyati orqali ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni yoki boshqa ob’ektlar uchun kerakli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish ham ijodkorlik qirrqlarining ochilishiga birinchi qadam bo‘lishi mumkin.

Ijodiy faoliyatni shakllantirishda estetik muhitni tashkil qilish muhim yo‘nalishlardan sanaladi. Ijodiy faoliyat insonning o‘z fikrlarini ifodalashi, yangilik yaratishi va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday jarayonda **estetik muhit** muhim rol o‘ynaydi, chunki go‘zallik, tartib va ilhomlantiruvchi atmosfera ijodkorlikni qo‘zg‘atadi. To‘g‘ri tashkil qilingan chiroyli va zamonaviy muhit inson ongini yuksaltirib, yangi g‘oyalalar yaratish imkonini beradi. Bunda **sinf** yoki ta’lim maydonini rang-barang, ilhomlantiruvchi va qulay qiladigan interyer bilan jihozlash. Lekin ushbu jarayonda moyorni ham inobatga olish lozim, chunki rang-baranglik oshib ketsa, o‘quvchining diqqatini jamlash qiyin bo‘ladi.

Ijodiy muhitni yaratish bo‘yicha tavsiyalar:

- 1.Yorqin va iliq ranglar ijodiy ish uchun qulay muhit yaratadi. Tabiiy yorug‘lik yetarli bo‘lishi muhim. Quyosh nuri ijodiy fikrlashga ijobiy ta’sir qiladi.
- 2.Qulay stollar, kursilar, ijodiy ish uchun mos joylar ish samaradorligini oshiradi.
- 3.Tashkil etilgan va toza muhit fikrlar aniq va erkin bo‘lishiga yordam beradi. Ish stoli tartibli va minimalistik bo‘lishi muhim, ortiqcha buyumlar diqqatni chalg‘itishi mumkin.
- 4.Ilhomlantiruvchi rasmlar, kitoblar, san’at asarlari, musiqa asboblari yoki tabiiy elementlar ijodiy jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.
- 5.Atrofdagi insonlar ijodiy fikrlashga ta’sir qiladi. O‘zaro fikr almashish yangi g‘oyalarga turki bo‘ladi, shu sababli qiziqishlari mushtarak bo‘lgan insonlar jamoasida bo‘lish.
- 6.Fikr almashish va yangi g‘oyalalar ishlab chiqish uchun kreativ insonlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish kerak.

7.Ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish uchun ilhom manbai bo‘ladigan san’at, dizaynga oid adabiyot va boshqa sohalarga oid materiallarnig har doim qo‘l ostida bo‘lishi.

7.Yengil musiqa yoki tabiat tovushlari ijodiy fikrlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

8.Innovatsion g‘oyalarni sinab ko‘rish va yangilik yaratish uchun qulay sharoit bo‘lishi lozim.

Ushbu tavsiyalar asosida tashkil etilgan ijodiy va estetik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muhit miyaning ijodiy jarayonlarini faollashtiradi,insonning kayfiyatini yaxshilaydi va stressni kamaytiradi. Fizik, madaniy va psixologik jihatdan qulay sharoit yaratilganda bo‘lajak o‘qituvchi o‘zini erkin his qilib, yangi g‘oyalar yaratishga ko‘proq moyil bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun tavsiyalar:

1.Amaliy mashg‘ulotlar orqali tajriba orttirish.Interaktiv mashg‘ulotlar, seminarlar va master-klasslarda ishtirot etish.

2.Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘rganish.Zamonaviy o‘quv platformalaridan foydalanishni o‘rganish, masalan, Moodle, Google Classroom va boshqa elektron tizimlar.

3.Doimiy ravishda yangi usullarni tadqiq qilish.Dunyo miqyosida ta’lim sohasidagi yangiliklarni kuzatib borish va ularni o‘z dars amaliyatiga tatbiq etish.

4.Innovatsion loyihalarda qatnashish.Ta’lim loyihalari va grant dasturlariga jalb qilinish orqali malakani oshirish.

5.Ta’lim jarayonini qiziqarli qilish.Yangi texnologiyalar yordamida darslar dinamik va interaktiv bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

6.Shaxsiy yondashuvni rivojlantirish.Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini beradi.

7.O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.Hamkorlik asosida o‘qitish, o‘quvchilarni o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil shakllantirishga undaydi.

8.Zamonaviy bozor talablariga moslashish.Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni real hayat sharoitlariga tayyorlash osonlashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu ma’lumotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar kelajak avlodni tayyorlaydi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sadi,yangi avlodni tarbiyalaydi, ilmga muhabbat uyg‘otadi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi yaxshi hamkorlik ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi talabalarga yo‘l ko‘rsatib, ularga o‘z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatini yaratishi kerak. Talabalar esa faoliyat ko‘rsatib, bilim olishga intilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baynazarova Nilufar Xikmatullayevna (2024), “Bo‘lajak o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash”, Innovation in the modern education system,

- 2.Baynazarova Nilufar Xikmatullayevna (2023),““Ustoz va shogird” tizimi – talabalar uchun yangi imkoniyat”,Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy dasturlar yordamida o‘qitish istiqbollari respublika ilmiy-texnik anjumani,
- 3.Байназарова Нилуфар Хикматуллаевна (2023), “Формирование профессиональных и творческих способностей студентов в сотрудничестве студентов”, Художественное образование в мире: вчера, сегодня, завтра Материалы XVI Международной научно-практической конференции,
4. Berdiyev Doston Abduvoitovich (2024),“Pedagogika oliv ta’llim muassasalarida badiiy studiyalarni tashkil etishning ahamiyati”,– **Iqro indexing**
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich (2024),“Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy tayyorlashda individual ta’limning ahamiyati”, Tasviriy san’at va musiqa ta’limida o‘qitishning dolzarb muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amalaiy konferensiyasi materiallari to‘plami,
6. Sultanov Xaytboy Eraliyevich, Baynazarova Nilufar Xikmatullayevna,(2025), “Integratsiya asosida tasviriy san’at va musiqa darslarini tashkil etish”, Лучшие интеллектуальные исследования